SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)
2025

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5I12Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

### *№ 12 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo oʻgʻli – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar boʻlimi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod Oʻktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Joʻraboy – falsafa fanlari doktori, professor;

Gʻaybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Moʻmin – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Oʻroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Koʻchimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov Gʻaybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Togʻayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 12-son (dekabr, 2025). - 557 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna*
OʻZBEKISTONDA TAʼLIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI..... 13-16

*Равшанов Маҳмуд*
ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЫКОВ .................. 17-19

*Tursunov Bekzot Yandashevich*
FARGʻONA VODIYSIDA HASHAR YOʻLI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN ........ 20-24

*Jumaboyev Azizjon Sayfiddin oʻgʻli, Shenkar Michael*
SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUGʻBEK ILMIY MEROSINING OʻRGANILISHI .......... 25-30

*Esanova Nilufar*
OʻZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA .................... 31-36

*Asadova Raʼno Baymanovna*
OLIY TAʼLIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK:
OʻZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHIYATI VA ISTIQBOLLARI .... 37-40

*Aytmuratova Janilsin*
FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN ........ 41-44

*Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna*
JANUBIY OROL BOʻYI SHAHARLARI TARIXI BOʻYICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI)........ 45-49

*Baqoyev Umidjon Shuhrat oʻgʻli*
ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON OʻRTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR ................................ 50-55

*Moʻminov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon oʻgʻli*
ANDIJON VILOYATI SUV XOʻJALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA)........ 56-60

*Elboyeva Shaxnoza*
XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN OʻRNI:
TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR ........ 61-65

*Choriyeva Nargiza Ibotovna*
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ........ 66-69

*Fayzullayev Oybek*
OʻRTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI OʻRGANISH
(XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)........ 70-74

*Norboyev Ravshan Saydulla oʻgʻli*
SHIMOLI-GʻARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI ........ 75-79

*Rajabova Nazira Shaxobovna*
OʻZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI ........ 80-84

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI


*Gabbarov Sabit Nietali'evich*
QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) ............................ 85-89

*Xolmurotov Fozil*
XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK ........................................................ 90-103

*Raximov Faxriddin Shavkatovich*
TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI ........................................................................................ 104-116


## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI


*Xoliqov Yunus Ortiqovich*
YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI YUKSALTIRISH STRATEGIYASI ........................................................................................ 117-121

*Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi*
JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MA'NAVIY QADRIYATLARNING ROLI ........................................................................................ 122-128

*Jumayeva Shaxlo Suyunovna*
TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI ............ 129-133

*Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich*
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI............................ 134-138

*Danabayev Xurshid Napasovich*
SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI................................ 139-142

*Shokirov Tohirjon*
CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA)........................................ 143-148

*Raxmatov Alisher Obidovich*
YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOIY JARAYONLARGA INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI ........................................................ 149-152

*Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna*
HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA: IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR .............................................. 153-158

*Axatova Dildora Axtamovna*
IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI.............................. 159-163

*Toshboboyev Maksud Jalilovich*
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOIY JARAYONLAR DIALEKTIKASI ........................................................................................ 164-168

*Abdiyev G'ayrat Ergashevich*
YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI ........................................................ 169-174

*Axmedova Dilrabo Sa’dullayevna*
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEK YOSHLARINING MA’NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O‘ZGARISHLAR ........ 175-179

*Sodirjonov Muhriddin Mahamadaminovich*
RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR ........ 180-187

*Abduraxmonov Xasan Ibroximovich*
YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ........ 188-192

*Norbo‘tayev Islombek Musurmonovich*
POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA ........ 193-198

*Ergashev Alijon Boxodirovich*
AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI ........ 199-203

*Elmuradova Surayyo Abdijalilovna*
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODELI ........ 204-207

*Bobamirzayev Abdulaziz*
RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA’LUMOTLAR ........ 208-211

*Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich*
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOIY O‘ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR ........ 212-216

*Do‘snazarov Mirjalol Esanboy o‘g‘li*
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O‘LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI ........ 217-221

*Beshimov Xamidjon Sayidovich*
FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI VA GENEZISI ........ 222-226

*Muhammadiyev Bekzod O‘ktamjon o‘g‘li*
VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI ........ 227-231

*Kdirbaev Baxadir Berdaxovich*
AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI ........ 232-237

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh*
O‘ZBEK TILIDA “HALOL” VA “HAROM” LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI ........ 238-245

*Уринбаева Дилбар Базаровна*
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ........ 246-258

*Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна*
СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА ........ 259-264

*Karimov Ulugbek Nusratovich*
THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY" ........ 265-269

*Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna*
POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH ........ 270-275

*Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna*
QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI ........ 276-279

*Isroilova Manzura Jamolovna*
FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 280-284

*Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna*
YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI ........ 285-290

*Bobojonov Dilshod Jumakul ugli*
THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES ........ 291-294

*Shamshetova Biybiayim Janibek qizi*
LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI ........ 295-302

*Xaitova Gulhayo Tovasharovna*
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN–UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI ........ 303-307

*Mardanova Mohira Davron qizi*
THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS ........ 308-311

*Khalilova Shohista Muhammadi qizi*
COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE ........ 312-315

*Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna*
SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI ........ 316-319

*Rustamov Dilshodbek*
NUTQIY MULOQOT TAVSIFI ........ 320-323

*Musayev Akmaljon Ibrogimovich*
INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI ........ 324-329

*Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi*
INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI ........ 330-333

*Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi*
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI ........................ 334-342

*Норкулова Шахло Абдугофир кизи*
СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ... 343-345

*Tursunova Javhar Bakir qizi*
O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH ........................ 346-350

*Xoshimova Mohigul Axmatovna*
XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI ........................................ 351-355

*Омонова Мадина Аслиддиновна*
ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ ........................................................................ 356-361

*Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna*
PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS ...... 362-370

*Abduraimova Mahliyo Valijon qizi*
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI ........................................................................................................ 371-373

*Rajat Choudhary*
LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE .................................................................. 374-377

*Клеблеева Резеда Радионовна*
МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА ...................................................................................... 378-381

Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina
RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH ............................................ 382-385

*Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi*
SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI ............................................................ 386-389

*Arapjonova Zebo Otabek qizi*
THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH ........................................................................................................ 390-394

*Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna*
THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES ............................................................................ 395-399

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich*
JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ..................... 400-407

*Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li*
PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ....................... 408-415

*Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov*
SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQARISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI ........................................................................................ 416-428

*G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 429-435

*Djalilov Javoxir Abdumajitovich*
ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI ........ 436-443

*Normurodova Behro'za Xolmo'minovna*
RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI ........ 444-450

*Ismailov Bekjon Salixovich*
NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI ........ 451-456

*Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich*
DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI ........ 457-463

*Almatov Sanjar Zokirovich*
DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI ........ 464-467

*Djuraev Farxod Eshboevich*
JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI ........ 468-473

*Sadikova Dilafruz Radjabovna*
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ........ 474-481

*Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли*
МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ ........ 482-488

*Olimov Abbosjon*
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI ........ 489-494

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*
TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI ........ 495-500

*Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна*
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА ........ 501-506

*Джуманиязов Фарход Улугбекович*
РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ........ 507-510

*Kuvatova Nozima Baxtiyorovna*
TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ........ 511-515

*Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna*
TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ........................................ 516-519

*Pirimbetov Bxit Allabaevich*
BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI .............. 520-526

*Djalolov Furqat Fattohovich*
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEXNOLOGIYASINING ROLI........................................................ 527-531

*Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich*
PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION ................................. 532-538

*Habibullayeva Shoira*
O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOYILLARI ........................................ 539-542

*Abatov Jalğasbay Orınbaevich*
TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI.. 543-548

*Azzamov Yusuf Rajaboyevich*
TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF........................................ 549-553

*Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи*
МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ ........................ 554-556

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 12 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 20 November 2025
**Accepted:** 1 December 2025
**Published:** 15 December 2025

*Article / Original Paper*

# METHODOLOGY FOR MANAGING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES

**Yazdonova Sahiba Kurbanovna,**
Professor of Samarkand branch
of Tashkent State Economic University,
Doctor of Philosophy
E-mail: soxiba0330@gmail.com

**Sanakulov Sardor Isakulovych**
Samarkand Agroinnovation and Researchs University,
assistant of the Department of Fundamental and Humanitarian Sciences

**Abstract.** This article analyzes the methodology for managing AI technologies through a set of scientifically based methods that regulate the development, implementation and operation of artificial intelligence systems, and in the research process, it is determined to view the problem as a complex system with a goal based on the combination of technical-technological, socio-psychological and legal-normative factors. Therefore, when considering the methodology for managing AI: the ability of AI algorithms to self-optimize and make adaptive decisions; monitoring of threats that may arise as a result of the autonomous operation of AI systems; mechanisms for controlling data quality, collecting them, cleaning them, and forming centralized integration models.

**Keywords:** artificial intelligence, technological progress, dynamic development, socio-philosophical analysis, cognitive, modularization, algorithmic decision, management, principle of operation, technical maintenance, security.

# SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI

**Yazdonova Saxiba Kurbanovna,**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Samarqand filiali prof.v.b., falsafa fanlari doktori (DSc)

**Sanaqulov Sardor Isaqulovich**
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti,
Fundamental va gumanitar fanlar kafedrasi assistenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sun'iy intellekt tizimining ishlab chiqilishi, joriy etilishi va ekspluatatsiya jarayonlarini tartibga soluvchi ilmiy asoslangan usullar majmuasi orqali – SI texnologiyalarini boshqarish metodikasi tahlil etilib, tadqiqot jarayonida muammoga texnik-texnologik, ijtimoiy-psixologik va huquqiy-me'yoriy omillar uygʻunligiga tayangan holda maqsadga kompleksli tizim sifatida qarash belgilangan. Shu sababli, sun'iy intellekt boshqaruv metodikasini ko'rib chiqishda: SI algoritmlarining o'z-o'zini optimallashtirish va adaptiv qaror qabul qilish qobiliyati; SI tizimlarining avtonom faoliyati natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlar monitoringi; ma'lumotlar sifatini nazorat qilish, ularni to'plash, tozalash, markazlashgan integratsiya modellarini shakllantirish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratiladi.

**Kalit soʻzlar:** sun'iy intellekt, texnologik taraqqiyot, dinamik rivojlanish, ijtimoiy-falsafiy tahlil, kognitiv, modullashtirish, algoritmik qaror, boshqarish, ishlash prinsipi, texnik xizmat, xavfsizlik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N22

**Kirish.** Sun’iy intellekt texnologiyalarini boshqarish ko’p qirrali, integrativ, ilmiy asoslangan tizim bo’lib, texnik, huquqiy, ijtimoiy va etik omillarning uyg‘unlashuvini talab etadi. Bu yo’nalishdagi amaliy jarayonlarni ko’rib chiqishda metodikaning samarali qo’llanishiga olib keluvchi sabablarga asosiy e’tiborni qaratish orqali SI tizimlarining xavfsiz, shaffof, mas’uliyatli va barqaror ishlashini ta’minlash mumkin bo’ladi. Shu jihatdan ushbu tadqiqotda SI tizimlari orqali: taktik boshqaruv jarayonlarini modullashtirish, algoritmik qarorlarni boshqarish, real vaqt birligida ishlash prinsiplari, texnik xizmat ko’rsatish, SI diagnostikasi modellarining klinik qaror qabul qilish jarayoniga integratsiyasi, adaptiv o’qitish tizimlari boshqaruvi, tizim avariya holatlarida xavfsiz tarzda to’xtash yoki avtonom tarzda muqobil yechimga o’tish qobiliyati, modelni qayta o’qitish orqali samaradorlikni oshirish parameterlari, SI tizimining ishlash tezligi, aniqligi, resurs sarfi onlayn nazorat qilinish metodikasi tadqiq etiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Matti Mäntymäki, Matti Minkkinen, Teemu Birkstedt va Mika Viljanen kabi tadqiqotchilar AI – faqat “texnologiya yoki algoritm” emas, balki u tizumli va multi-qirrali (texnik, tashkilot, huquqiy, etik) boshqaruvni taqozo qiladigan “jamiyat resursi” tushunchasini ilmiy muomilaga kiritib, asosiy e’tiborini etik prinsiplar, qonunlar va jamiyatning talablari (ekologik, ijtimoiy muhit) konsepsiyasida ko’rsatilib, uni bevosita amaliyotga tatbiq qilish zarurati ilgari suriladi[1, 201-205-b]. Ian W. Eisenberg, Lucía Gamboa, Eli Shermanlar SIni boshqarishda ko’p xil boshqaruv tizimlari (risk-menejment, normativ-huquqiy, texnik, operatsion) bir-biridan ajralgan va xato kompleks boshqaruv bilan yuzaga keladi degan g‘oyani ilgari surib, funksional “kontrollar” to’plamini taklif etadi. Ya’ni, bir bitta integral ramka (framework) orqali turli risk, qonunchilik va operatsion talablarga javob berish mumkinligini isbotlab beradi[2, 97-103-b]. Bu tadqiqotlarda muammoning umumiy jihatlari ko’rib o’tilganligi bois, ushbu tadqiqotda SI texnologiyalariga faqat texnik vosita sifatida emas, balki ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy tizimlarni o’zgartiradigan kompleks fenomen sifatidagi boshqarish imkoniyatlari ham ko’rib chiqiladi.

**Tahlil va natijalar.** Sun’iy intellekt texnologiyalari zamonaviy taraqqiyot nashidasi bo’lganligi bois, uning boshqaruv tizimi ham murakkab sxemaga ega. Ya’ni, sun’iy intellekt o’zi kirib borgan barcha sohalarga mos ravishda ma’lum bir metodikada ishlaydi. Shu jihatdan u doimiy rivojlanish, takomillashish hamda vaqt va zamon shart-sharoitlariga muvofiq o’zgaruvchan tendensiyada kechadi. Ammo, SIning universal metodikasi ikki guruhga ega bo’lib, ular xavfsizlik va etik boshqaruv metodologiyasi hisoblanadi. Bularning o’zini ham jamiyatdagi ishtirokiga qarab, bir qancha toifalarga ajratish mumkin. Masalan, sun’iy intellekt texnologiyalari boshqarilish shakliga ko’ra murakkab tuzilmadir. Uning umumiy “boshqaruv metodikasi”ni quyidagicha tasniflash mumkin:

***Etik boshqaruv metodikasi.*** Bu metodika SI faoliyatini axloqiy me’yorlarga moslashtirishni ko’zda tutib, ishlash mexanizmi – SI tizimlarini adolatli, xavfsiz va mas’uliyatli tarzda boshqarishga asoslangandir. Ular “Xavf tahlili”, “Inson nazorati”, “Etik audit”, “Ma’lumotlar boshqaruvi”, “Shaffoflik”, “Qonuniy moslik”, “Javobgarlik”, “Zarar yetkazmaslik” tamoyillariga bo‘ysunib, shular orqali sun’iy intellekt texnologiyalari axloqiy me’yorlashtirilib boriladi. Ushbu qismlarga umumiylikdan xususiylikka o’tish qonuniyati orqali yondashib ko’ramiz.

***Xavf tahlili –*** sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan texnik, ijtimoiy, axloqiy va huquqiy xatarlarni aniqlash, baholash va uning zararini kamaytirish metodikasi hisoblanadi. U “qanday jarayonlarda ko’rinadi?” deydigan bo’lsak,

masalan SI tizimning noto'g'ri ishlashi, xato qaror shiqarishi, inson huquqlariga zarar yetkazishi yoki jamiyatda salbiy ijtimoiy oqibatlar keltirib chiqarishi ehtimoli sifatida izohlanadi. Demak, SI modellarining noto'g'ri qaror qabul qilishi, ma'lumotlar xavfsizligi buzilishi yoki ijtimoiy guruhlarga nisbatan adolatsiz algoritmik munosabatlar yuzaga kelishini aniqlovchi va uning shakllanish bosqichlari haqida ma'lumot beruvchi tamoyil – "Xavf tahlili" deb, nomlanadi. Tadqiqotchi A.B.Aliqulov bu tamoyilning ishlash prinsipini shunday ta'riflaydi: "xavflar tengsizlikning kuchayishiga, shaxsiy hayotning yo'qolishiga va jamiyat uchun boshqa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu xavflarni bartaraf etish uchun SIni ishlab chiqish va ishlatishga mas'uliyatli yondashish, texnologiya jamiyatga foyda keltirishini ta'minlash, potensial xavf va salbiy oqibatlarni minimallashtirish"[3, 14-b]da sun'iy intellektning "xavfni tahlil" tamoyili o'ziga xos yechim hisoblanadi.

***Inson nazorati*** – sun'iy intellekt tizimlari tobora murakkablashgani sari ularning ustidan inson nazoratini ta'minlash masalasi ham dolzarblashib bormoqda. Ya'ni, inson nazorati SI tizimlarining qarorlarini xavfsiz, ishonchli va axloqiy me'yorlarga mos bo'lishini kafolatlashi kerakligi zarurat bo'lib qolmoqda. Chunki, qilinayotgan ishlar, erishilayotgan yutuqlar u qadar katta natija berayotgani yo'q. T.Umirzaqova aytganidek, zamon o'zgarar ekan, odamzod o'zining eng katta orzularidan biriga tobora yaqinlashmoqda, bu aqlni yaratish orzusidir[4, 93-b]. Shu o'rinda "sun'iy intellektni inson qanday nazorat qilish kerak?" -degan savol tug'iladi. Bunga turli yo'nalishda tadqiqot olib borayotgan olimlar quyidagicha ilmiy nazariy xulosalarni ilgari surmoqda.

Sun'iy intellekt insoniyatning eng buyuk yutug'i bo'lishi bilan birga, eng katta sinovidir. U hayotni osonlashtiradi, lekin inson o'zining aqlini, his-tuyg'usini va qadriyatlarini yo'qotmasligi kerak. Texnologiya ustidan nazorat inson qo'lida bo'lishi, qonuniy va axloqiy chegaralar aniq belgilanishi zarur degan g'oyani F.G'aniyeva ilgari surib, uning (SI) imkoniyatlarini qo'yidagicha izohlaydi "SI – insoniyat qo'lidagi ikki qirrali qilich bo'lib, uni to'g'ri yo'naltirish ko'p jihatdan inson irodasiga bog'liq"[5, 458-460-b]. Masalan, sun'iy intellektni axloqiy me'yorlar bilan muvofiqlashtirish orqali jamiyatning barcha sohalarida jiddiy taraqqiyotga erishish mumkin yoki aksi. Masalaning mana shu qismida "inson nazorati borasidagi sun'iy intellekt chegarasi qani!?" degan savol ko'riladi. Ilmiy tajribaviy mulohaza yuritgan tadqiqotchilar quyidagi javoblarga keladi:

*Birinchidan,* insonning barcha kognitiv qobiliyatlari, jumladan, analitik fikrlash, ijodkorlik, murakkab muammolarni hal qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va ijtimoiy anglash kabi sohalarda ustunlik qiluvchi sun'iy aql darajasidir.

*Ikkinchidan,* super intellektning hisoblash quvvatlari va optimallashtirish imkoniyatlari iqtisodiyot, tibbiyot, muhandislik, energetika va ekologik muammolarni misli ko'rilmagan sur'atda hal etishga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, bu jarayon jamiyatning barcha sohalarida radikal o'zgarishlar keltirib chiqarishi ehtimoli yuqori.

*Ushinchidan*, super sun'iy intellekt (SSI)ning eng katta ilmiy muammosi "sun'iy super intellektning maqsad funksiyasi inson qadriyatlariga mos kelmasa, uning harakati ijtimoiy xavfsizlikka tahdid tug'dirishi mumkinmi?" savoli ostida kechib, shu sababli "aligned AI" – ya'ni inson qadriyati bilan moslashtirilgan intellekt yaratish bugungi kundagi etika, axborot xavfsizligi va texnik AI xavfsizligi bo'yicha tadqiqotlarning markaziy yo'nalishidir, degan g'oya ilgari surilmoqda.

Umuman olganda SI tizimlarida foydalaniladigan ma’lumotlarni boshqarish, nazorat qilish hamda muvofiqlashtirish strategiyasi bo’yicha xulosa qiladigan bo’lsak, *birinchidan,* SI tizimlarining samarali ishlashi asosan ma’lumotlarning sifatiga va ularni boshqarish jarayoniga bog‘liq. Ma’lumotlarni boshqarish strategiyasi asosan ma’lumotlarning to’liqligi va aniqligini ta’minlash, yangilanib turishini nazorat qilish, turli manbalardan olingan ma’lumotlarni birlashtirish va saqlashni o’z ichiga oladi. Bu jarayon SI tizimlarining qaror qabul qilish samaradorligi va xatoliklarni kamaytirish imkoniyatini oshiradi. Bu borada Abeba Birhane konsepsiyasini keltirib o’tish o’rinlidir. U bugungi kunda SI (sotsiotexnik, algoritmli) tizimlarida ma’lumotlarni boshqarish, nazorat qilish va muvofiqlik (komplaens) masalalariga juda murakkab va yetik yondashuvni ilgari surmoqda. Uning qarashlarini bir nechta asosiy nuqtalarda ko’rish mumkin. Masalan, Birhane o’zining “Relyatsion etika” (Relational Ethiss) deb nomlangan konsepsiyasida SI (algoritmli) tizimlardagi adolatni qayta o’ylash kerakligini ta’kidlaydi. Chunki, uning relyatsion etikasi bo’yicha an’anaviy g‘arb etikasidagi shaxsiylik tamoyili (individualizm) hamma munosabatlarni tushunish uchun yetarli emas. Algoritmli qarorlar va ma’lumot bilan ishlashda insonlar bir-biri bilan bog‘liq (relyatsion) munosabatlarda yashaydi va bu munosabatlar ularni ma’lumotdan keladigan zararlardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega[6, 400-406-b] deb hisoblaydi. Shuning uchun SI tizimlarida faqat texnik “bias removal yechimlari yetarli emas degan xulosaga keladi. Birhane jamiyatdagi kuch va tarixiy asimmetriyalarini (power asymmetries) hisobga olgan mukammal etik yondashuvni taklif qiladi.

**Xulosa.** sun’iy intellekt texnologiyalarini boshqarish metodikasi bo’yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni taqdim etish mumkin:

1. SI tizimlarida ma’lumotlar nazorati tizimning ishonchliligi va xavfsizligini kafolatlaydi. Nazorat qilish quyidagi jihatlarni o’z ichiga oladi. Bularga ma’lumotlarning buzilmaganligini va soxta emasligini tekshirish, algoritmlarning noto’g‘ri qarorlar chiqarish xavfini kamaytirish, ma’lumotlarga ruxsatsiz kirishni cheklash va himoya qilish kiradi. Shu orqali shaxsiy ma’lumotlar va sezgir axborotlar bilan ishlashda muhim ko’nikmalarni yaratish mumkin.

2. SI tizimlarining rivojlanishi bilan ma’lumotlarni boshqarish ham murakkablashib boradi. Yaqin kelajakda SI tizimlari o’rtasida real vaqtda ma’lumot almashinuvi va muvofiqlashtirish tizimlari keng tarqaladi. Ma’lumotlar etikasi va qonunchilik talablariga moslashuv strategiyalari yanada muhim bo’ladi. Natijada katta hajmdagi ma’lumotlarni boshqarish uchun avtomatlashtirilgan, o’rganishga asoslangan monitoring tizimlari rivojlanishiga olib keladi.

3. SI tizimi qaysi ma’lumotlar asosida ishlayotgani, ularni qanday yig‘ilganligi va qayta ishlanganligini ochiq ko’rsatish bu avvalo xususiy hayotga hurmat bilan bog‘liq bo’lib, noto’g‘ri yoki diskriminatsion qarorlar xavfini kamaytirishga qaratilgan islohotlar olib borish zaruratini ko’rsatadi.

4. Shaffoflik orqali tizim yaratgan yoki ishlatgan shaxslar qarorlari uchun mas’ul bo’lishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, etik va huquqiy nuqtai nazar ma’lum qarorlarni qabul qilishda kritik imkoniyatni tug‘diradi.

5. Sun’iy intellekt texnologiyalarini boshqarishda shaffoflik tamoyili tizimning ishonchliligi, etik mas’uliyati va huquqiy muvofiqligini ta’minlash uchun asosiy prinsip hisoblanadi. Demak, shaffoflik nafaqat algoritmik qarorlarning tushuntirilishini, balki ma’lumotlar va jarayonlarning ochiqligini ham ta’minlaydi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Mäntymäki M. et al. Putting AI ethics into practice: The hourglass model of organizational AI governance // arXiv preprint arXiv:2206.00335. 2022. –P.201-205
2. Eisenberg I. W., Gamboa L., Sherman E. The Unified Control Framework: Establishing a Common Foundation for Enterprise AI Governance, Risk Management and Regulatory Compliance // arXiv preprint arXiv:2503.05937. – 2025. –P.97-103
3. Aliqulov A.B. Sun'iy intellekt texnologiyalarining xavflari va ularni bartaraf qilishning ayrim yo'llari // So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 7-jild 5-son respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 2004. –B.14
4. Tojiboyev B., Olimov M., Alimqulov N. Sun'iy intellekt: zamonaviy yondashuv // Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. Андижон давлат университети. Андижон машинасозлик институти. 2022. –B. 193.
5. O'tkirovna G. F. Sun'iy intellekt: insoniyatning do 'stimi yoki raqibimi? // Yangi O 'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. 2025. –T. 3. – №. 4. –B. 458-460.
6. Birhane A. Algorithmic injustice: a relational ethics approach // Patterns. 2021. – T. 2. – №. 2. –P. 400-406.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 12 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).